



UMUM TA'LIM MAKTABLARIDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA ONLAYN RESURSLARDAN FOYDALANISH TAJRIBASI

Aytbaeva Ulmeken Saytbek qizi

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti

Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili)

mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi globallashtirish jarayonida yoshlar orasida keng targ'ib qilinayotgan chet tilini onlayn o'rganish maqsad qilib olingan. Asosiy maqsad yoshlarga an'anaviy dars metodlarini raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalash orqali o'qitish va onlayn resurslarni an'anaviy metodlar bilan uyg'unlashtirib qo'llash maktablarda ingliz tili ta'limi sifatini oshirishning eng samarali yo'li ekanligi targ'ib qilinadi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, innovatsiya, integratsiya, raqamli texnologiya, an'anaviy metodlar, onlayn resurslar, onlayn lug'at, video darslar, interaktiv ilovalar.

Аннотация. Цель данной статьи-изучение иностранного языка в онлайн-формате, широко распространенного среди молодежи в условиях современной глобализации. Основная задача-обучение молодежи путем интеграции традиционных методов обучения с цифровыми технологиями и демонстрация того факта, что наиболее эффективным способом повышения качества преподавания английского языка в школах является использование онлайн-ресурсов в сочетании с традиционными методами.

Ключевые слова: английский язык, инновация, интеграция, цифровые технологии, традиционные методы, онлайн-ресурсы, онлайн-словари, видео уроки, интерактивные приложения.

Abstract. This article aims to study a foreign language online, which is widely promoted among young people in today's globalization process. The main



goal is to teach young people by integrating traditional teaching methods with digital technologies and to promote the fact that the most effective way to improve the quality of English language education in schools is to use online resources in combination with traditional methods.

Keywords: *english, innovation, integration, digital technology, traditional methods, online resources, online dictionaries, video lessons, interactive applications.*

KIRISH. Umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishda onlayn resurslardan (Kahoot, Quizlet, YouTube, British Council) foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va dars samaradorligini yuksaltiradi. Interaktiv metodlar, o'yinlar va vizual materiallar til o'rganishni qiziqarli qilib, tinglab tushunish va so'zlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.¹

Maktablarda onlayn resurslardan foydalanishning asosiy hihatlari:

Interaktivlik va motivatsiya: Kahoot! va Quizlet kabi platformalar darsni o'yin shakliga keltirib, o'quvchilarning faolligini oshiradi.

Multimedia resurslari: YouTube va ta'limiy saytlar (masalan, British Council LearnEnglish Kids) real hayotiy ingliz tilini tinglash (listening) imkoniyatini beradi.

Individual yondashuv: Onlayn mashqlar o'quvchilarga o'z sur'atlarida ishlash va bilimlarini mustaqil tekshirish imkonini beradi.

Innovatsion metodlar: Innovatsion texnologiyalarni qo'llash an'anaviy darslarni zamonaviylashtiradi va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

Amaliy tajriba: O'qituvchilar darsning qiziqish uyg'otish (warm-up) qismida qisqa videolar, mustahkamlash qismida esa onlayn testlardan foydalanish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirmoqda.²

Tadqiqot metodologiyasi

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-tili-darslarida-texnologiya-va-onlayn-resurslardan-foydalanish/pdf>

² <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-tili-darslarida-texnologiya-va-onlayn-resurslardan-foydalanish/pdf>



Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning til o'rganish individual layoqatlari (individual language learning aptitude) va individual usullari ham hisobga olinadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ingliz tili o'rganish layoqatlarining "yuqori", "o'rta" va "past" nisbiy darajalari aniqlangan.

Ingliz tili o'rganish layoqat darajalari o'quvchilarning

- a) o'quv faoliyat turining ratsional usullarini egallaganliklari;
- b) verbal xotira (so'z mantiq xotirasi va ma'nosini tushunib eslab qolish salmog'i)ning rivojlanganligi;
- d) til qonuniyatlarini kashf qilib o'rganilishini tezlashtiruvchi tafakkurning rivojlanganligi;
- e) diqqatni ongli idora qila olish kabi individual xususiyatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining ingliz tili o'rganish usullari (learning styles)ga quyidagicha ta'rif berilgan: -Learning styles refers to "...an individual's natural habitual, and preferred ways of absorbing, processing, and retaining new information and skills³.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ingliz tili o'rganish usullarini hisobga olib mashg'ulotlarni samarali tashkil etish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni umumlashtirish mumkin.

Ma'lumki, kichik maktab yoshidagi o'quvchi o'z ona tildan biror narsani qo'lga kiritish (instrumental funktsiya), xatti-harakatni boshqarish (regulyativ funktsiya), atrofdagilar bilan hamkorlikda faoliyat yuritish (interaktiv funktsiya), shaxsiy his-tuyg'ular va ma'nolarni ifodalash (personal funktsiya), o'rganish va kashf qilish (evristik funktsiya), o'z tasavvuridagi olamni yaratish (tasavvur funktsiya), axborot almashish (kommunikativ funktsiya) maqsadlarida foydalanadi.

³ Muhammadiev B, Qayumova M, Shomurotov U. Ingliz tilini o'rta ta'lim maktablarida o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish. Tadqiqotlar. Jahon ilmiy-metodik jurnal. ISSN:3030-3613.37-son. 4-to'plam. May 2024. B.13-14. <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/2904/2728>



Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishga o'quvchilarga ingliz tilidan aynan shu maqsadlarda foydalanishni o'rgatish lozimligi tavsiya etiladi.

Asosiy jihatlari:

Innovatsion metodlar: An'anaviy darslarni mobil ilovalar va internet resurslari bilan boyitish.

Samaradorlik: O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va til ko'nikmalarini (listening, speaking) mustaqil rivojlantirish.

Resurslar: Zamonaviy metodikada interfaol o'yinlar va ta'lim platformalaridan unumli foydalanish tahlili.

Asosiy yo'nalishlari:

Mobil ilovalarning o'rni: Lug'at boyligini oshirish va grammatikani mustahkamlashda mobil ilovalardan foydalanishning qulayliklari.

Onlayn resurslar: Multimedia vositalari, videolar va interfaol o'yinlarning dars samaradorligiga ta'siri.

Metodik yondashuv: An'anaviy dars metodlarini raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalash orqali o'qitish samaradorligini oshirish⁴.

Sh.Ubaydullayev mashqlar sistemasini quyidagicha tasniflaydi:

- (1) til materialini o'zlashtirishga ko'ra: fonetik, grammatik, leksik mashqlar;
- (2) nutq faoliyati turlarini egallashda qo'llanishiga ko'ra: tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozishga o'rgatish mashqlari;
- (3) lingvistik materialga ko'ra: til va nutq mashqlari;
- (4) bilim, ko'nikma va malaka hosil qilishiga ko'ra: tayyorlov va amaliy mashqlar;
- (5) bajarilish joyiga ko'ra: sinfda, uyda, laboratoriyada bajariladigan mashqlar;
- (6) nutq shakli va usuliga ko'ra: og'zaki va yozma nutq mashqlari;
- (7) tillar soniga ko'ra: bir tilli va ikki tilli mashqlar;

⁴ <https://www.google.com/search?q=.+muhammadiev>



(8) amallarni mustahkamlashga ko‘ra: biriktirish, o‘zgartirish –reproduktiv, tanlash, guruhlash, o‘xshatish, farqlash –retseptiv mashqlar;

(9) yordamchi vositalar ishlatilishiga ko‘ra: ko‘rgazmalilik, texnika vositalari, programmashtirish elementlari yordamida bajariladigan mashqlar;

(10) o‘zlashtirish bosqichlaridan kelib chiqishiga ko‘ra: dastlabki egallash, mashq qilish, amaliyot, takrorlash, nazorat qilish mashqlari ham mavvjud. Ingliz tili o‘qitish amaliyotida drilling, ya’ni til kompetensiyalarining egallanishiga mo‘ljallangan takrorlash va taqlid qilish (imitatsion) mashqlari ommalashgan.

Tahlil va natijalar

O‘zbek olimlarining ilmiy tadqiqotlari ingliz tili o‘qitishning yangi metodlari va texnologiyalarning qo‘llanilishi haqidagi bilimlarni boyitadi. Texnologiyalar va onlayn resurslar o‘quvchilarga tilni o‘rganishda samarali va qiziqarli yondashuvlarni taqdim etadi. O‘zbek olimlarining asarlarida ta’lim jarayonini texnologiyalar orqali qanday yanada interaktiv va samarali qilish mumkinligi haqida chuqur tahlillar keltirilgan. Bu adabiyotlar ingliz tili o‘qituvchilari uchun muhim manba bo‘lib, ularga darslarni zamonaviy metodlar bilan boyitish imkonini beradi.

Ingliz tili o‘rgatishda texnologiyaning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Interaktivlik: O‘quvchilar uchun interaktiv materiallar yaratish orqali tilni o‘rganish jarayonini qiziqarli qilish mumkin.

Qulaylik: O‘quvchilar istalgan vaqtda va istalgan joyda o‘rganishni davom ettirishi mumkin, bu esa o‘qish jarayonini moslashtiradi.

Resurslarga oson kirish: Onlayn kutubxonalar, video darslar, audio materiallar va o‘quv platformalariga kirish imkoniyati o‘quvchilarga mustahkam nazariy asos yaratadi.

Global muloqot: Onlayn resurslar yordamida o‘quvchilar dunyoning turli burchaklaridan bo‘lgan tengdoshlari bilan muloqot qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Onlayn resurslar ingliz tili o‘rgatishda keng qo‘llanilmoqda. Ularning asosiy afzalliklaridan biri, ularning barcha o‘quvchilar uchun mavjudligi va ular



o'quvchilarga tilni turli jihatlardan o'rganish imkoniyatini yaratadi. Quyidagi onlayn resurslar ingliz tili darslarida samarali qo'llanilishi mumkin: Ingliz tilini o'rganishda lug'atlar va tarjima vositalaridan foydalanish juda foydalidir. Internetda mavjud bo'lgan onlayn lug'atlar, masalan, Cambridge Dictionary, Oxford Dictionary va WordReference, o'quvchilarga so'zlarning ma'nosini, transkripsiyasini va o'zgartirishlarini o'rganish imkonini beradi.

Shuningdek, Google Translate kabi tarjima vositalari orqali o'quvchilar yangi so'zlarni boshqa tillarga tarjima qilishni o'rganishadi. Bu vositalar o'quvchilarga tilni tezda va samarali o'zlashtirishda yordam beradi. Ingliz tilini o'rganish uchun YouTube kabi video platformalar juda foydali resursdir. Ingliz tilida qilingan darslar, ta'limiy videolar va podcastlar yordamida o'quvchilar nafaqat til o'rganishadi, balki ularning talaffuzi va eshitish qobiliyatlari ham rivojlanadi.⁵

Bugungi kunda ingliz tilini o'rganish uchun ko'plab interaktiv veb-saytlar va mobil ilovalar mavjud. Duolingo, Babbel, Busuu va Memrise kabi ilovalar o'quvchilarga turli darajadagi mashqlarni bajarishga, tilni mustahkamlashga va yangi so'zlarni o'rganishga yordam beradi. Bu ilovalar ko'pincha o'yin shaklida bo'lib, o'quvchilarning qiziqishini saqlab turadi va o'rganish jarayonini ko'proq motivatsiya bilan o'tkazishga yordam beradi. Ingliz tilini o'rgatishda o'quvchilarning bilim darajasini baholash muhim ahamiyatga ega. Onlayn testlar va imtihonlar yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini tekshirishlari va baholashlari mumkin.

Masalan, IELTS, TOEFL va Cambridge English kabi xalqaro imtihonlarni tayyorlash uchun mo'ljallangan onlayn platformalar mavjud. Bu resurslar o'quvchilarga tilni o'zlashtirish darajasini aniqlashga yordam beradi.

XULOSA. Ingliz tili darslarida texnologiya va onlayn resurslardan foydalanish o'quvchilar uchun tilni o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Onlayn lug'atlar, video darslar, interaktiv ilovalar va platformalar yordamida o'quvchilar yangi bilimlarni o'zlashtirishlari mumkin. Onlayn resurslarni

⁵ Xaitmuratova Z.S., Salomova G.A. Ingliz tili darslarida texnologiya va onlayn resurslardan foydalanish. // Inter education & global study. 2025. №1 – B. 294-300.



anʻanaviy metodlar bilan uygʻunlashtirib qoʻllash maktablarda ingliz tili taʻlimi sifatini oshirishning eng samarali yoʻlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-tili-darslarida-texnologiya-va-onlayn-resurslardan-foydalanish/pdf>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-tili-darslarida-texnologiya-va-onlayn-resurslardan-foydalanish/pdf>
3. Muhammadiev B, Qayumova M, Shomurotov U. Ingliz tilini oʻrta taʻlim maktablarida oʻqitishda innovatsion metodlardan foydalanish. Tadqiqotlar. Jahon ilmiy-metodik jurnal. ISSN:3030-3613.37-son. 4-toʻplam. May 2024. B.13-14. <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/2904/2728>
4. <https://www.google.com/search?q=+muhammadiev>
5. Xaitmuratova Z.S., Salomova G.A. Ingliz tili darslarida texnologiya va onlayn resurslardan foydalanish // Inter education & global study. 2025. №1 B. 294-300.
6. Ergashovna M. G. Types of fabrics and their analysis // Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. –2023. –T. 2. –No. 5. – C. 59-61.